

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOZOROVA GULMIRA ZAYNIDDINOVNA

O‘ZBEK TILI TIBBIY TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH
OMILLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological sciences

Bozorova Gulmira Zayniddinovna

O‘zbek tili tibbiy terminologiyasining shakllanish omillari..... 3

Бозорова Гулмира Зайниддиновна

Факторы формирования медицинской терминологии узбекского языка 30

Bozorova Gulmira Zayniddinovna

Factors in the formation of Uzbek medical terminology..... 67

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 68

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOZOROVA GULMIRA ZAYNIDDINOVNA

**O‘ZBEK TILI TIBBIY TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH
OMILLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida 2025.2.DSc/Fil975 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti (www.buxdu.uz/) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abuzalova Mehriniso Kadirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sobiroy Abdulhay Shukurovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Islomov Ikrom Xushboqovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "26" avgust soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (D-989 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "12" avgust kuni tarqatiladi.
(2026-yil "1" avgust dagi 25 - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sog‘liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishi, tibbiyot ilm-fanining integratsiyalashuvi va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida tibbiy terminologiya tizimlari ham tubdan yangilanib bormoqda. Xalqaro miqyosda tajriba almashinuvi, tibbiy bilimlarning tezkor tarqalishi va yagona terminologik makon yaratishga bo‘lgan ehtiyoj tibbiy terminlarning aniqligi, izchilligi va standartlashuvini dolzarb masalaga aylantirdi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida turli tillardagi tibbiy terminlarning o‘zaro ta’siri kuchayib borayotgani ularni milliy til me’yorlari asosida tartibga solish va standartlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tili tibbiy terminologiyasining shakllanish omillarini tizimli o‘rganish hamda ularni me’yorlashtirishning funksional asoslarini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslik va tibbiyot uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida terminologiya, xususan, tibbiy terminologiya kognitiv, diskursiv va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida keng tadqiq etilayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Terminlarning nafaqat nominativ birlik sifatidagi, balki inson tafakkuri, kasbiy muloqot va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatidagi xususiyatlari chuqur o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, terminlarning shakllanishida ichki va tashqi omillarning o‘zaro aloqadorligini integrativ yondashuv asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili tibbiy terminologiyasini mazkur yondashuvlar doirasida izchil o‘rganish, uning shakllanish omillarini aniqlash, rivojlanish qonuniyatlarini yoritish hamda me’yorlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va ilmiy faoliyatni rivojlantirish jarayonida milliy tibbiy terminologiyani takomillashtirish muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, “...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish”¹ vazifasi belgilandi. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash, ilm-fan tilini rivojlantirish va terminlarni me’yorlashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar tibbiy terminologiyani ilmiy asosda tizimlashtirishni taqozo etadi. Amaliyotda esa terminlarning variantlilik, tarjima muammolari va o‘zlashmalarning qo‘llanishidagi noaniqliklar saqlanib qolmoqda. Shu bois, o‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanish omillarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi PF – 5850-son Farmoni. Xalq so‘zi // 2019-yil, 22-oktabr, 218-son.

chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5000-son "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². O'zbek tili tibbiy terminologiyasining shakllanish omillarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, London universiteti, Edinburg universiteti (Buyuk Britaniya), Kopengagen universiteti (Daniya), Vena universiteti (Avstriya), Karles universiteti (Chexiya), Varshava universiteti (Polsha), Granada universiteti (Ispaniya), Syurix universiteti (Shveytsariya), Stokgolm universiteti (Shvetsiya), University of Oslo (Norvegiya), Belarusiya davlat universiteti (Belarus), Taras Shevchenko nomidagi Kiyev Milliy universiteti (Ukraina), Vilnyus universiteti (Litva), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Terminologiya va tibbiy terminologik birliklarni o'rganish yo'nalishida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: tibbiy terminlarning kognitiv modellashtirilishi, klinik diskurs va tibbiy kommunikatsiyaning lingvistik xususiyatlari yoritilgan (Garvard universiteti, AQSh); terminlarning tarixiy-etimologik asoslari, derivatsion modellari hamda termin hosil qilish tamoyillari ishlab chiqilgan (Geydelberg universiteti, Germaniya); tibbiy terminologik birliklarning leksik-semantik, metaforik va funksional xususiyatlari tavsiflangan (Sorbon universiteti, Fransiya); ko'ptilli tibbiy lug'atlar, terminografiya, terminlarni standartlashtirish, tarjima hamda milliy tilga moslashtirish masalalari tadqiq etilgan (Helsinki universiteti, Finlyandiya; Tokio universiteti, Yaponiya; Pekin universiteti, Xitoy); tibbiy kommunikatsiya, klinik muloqot va amaliy

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.researchgate>, <https://scholar.google.com/>, <https://www.academia.edu/>, <https://www.dissercat.com/>, <https://www.lingvolive.com/ru-ru>, www.dictionary.com, www.merriam-webster.com, <http://elibrary.udsu.ru>, <https://cheloveknauka.com>, www.science.org, www.healthline.com, <https://www.sciencedaily.com/>, www.scientificamerican.com, www.languageguide.org, www.urbandictionary.com va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

lingvistika yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borilgan (Sidney universiteti, Avstraliya); tibbiy terminlarning milliy terminologik tizimdagi o‘rni, ularning me‘yorlashtirish tamoyillari hamda ilmiy va amaliy qo‘llanish xususiyatlari o‘rganilgan (Birmingem universiteti, Buyuk Britaniya; Vena universiteti, Avstriya; Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston); tibbiy terminologiyaning struktur-semantik, funksional va kommunikativ xususiyatlari, shuningdek, turli tillardagi terminologik tizimlarning qiyosiy jihatlari yoritilgan (Oslo universiteti, Norvegiya; Varshava universiteti, Polsha; Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston).

Dunyo tilshunosligida hozirda, jumladan, quyidagi ilmiy izlanishlar ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda: tibbiy terminologiyani struktur-semantik va funksional jihatdan asoslash, terminlarning tizimlilik xususiyatlari hamda derivatsion modellarini aniqlash, ularni kognitiv, diskursiv va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida tavsiflash, tibbiy terminlarning shakllanish omillarini lingvistik nuqtayi nazardan yoritish, terminlarni standartlashtirish va terminografik tamoyillarni takomillashtirish, ilmiy hamda klinik diskursda qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash, elektron terminologik bazalar va korpuslarni yaratish, shuningdek, korpus tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi hamda sun‘iy intellekt texnologiyalari ehtiyojlari uchun tibbiy terminlarning lingvistik modellarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida tibbiy terminologiyani lingvistik jihatdan o‘rganishga oid salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, terminshunoslikning nazariy asoslari, maxsus til tizimi sifatidagi xususiyatlari hamda ilmiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid masalalar V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, V.P.Danilenko, H.Felber, E.Vyuster, J.C.Sager, M.T.Cabre, V.M.Leychik kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan³.

Shuningdek, dunyo tilshunosligida tibbiy leksika, tibbiy terminologiyani o‘rganishda semantik, struktur, funksional va kognitiv yondashuvlar asosida E.V.Bekisheva, L.Y.Zubova, T.S.Kirillova, S.L.Mishlanova, V.F.Novodranovalar tomonidan olib borilgan izlanishlar terminlarning ilmiy mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan⁴. Tibbiy diskursning lingvistik xususiyatlari L.S.Beylinson, V.V.Jura,

³ Виноградов В. В. Вступительное слово/ В. В. Виноградов // Вопросы терминологии: мат-лы Всесоюзного терминологического совещания. –М.: АН СССР, 1961. –С. 3-10.; Реформацкий А.А. Что такое термин и терминология [Текст] / Акад. наук СССР. Ин-т языкознания. – Москва: [б. и.], 1959. –14 с.; Реформатский А.А. Введение в языковедение [Текст]: [Учебник для филол. фак. пед. ин-тов]. – 4-е изд., испр. и доп. – Москва: Просвещение, 1967. – 542 с.; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии [Текст]: Вопросы теории и методики / Акад. наук СССР. Ком. техн. терминологии. – Москва: Изд-во Акад. наук СССР, 1961. – 158 с.; Даниленко В.П. Русская терминология [Текст]: Опыт лингв. описания / В.П. Даниленко; АН СССР, Ин-т рус. яз. – Москва: Наука, 1977. – 246 с.; Felber H. Terminology manual / By Helmut Felber. – Paris: UNESCO, Infoterm, 1984. – [2], XXII, –426 p.; Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Fachsprachl. Zentrum, Handelshochsch. Kopenhagen, 1985. – 214 s.; Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam; Philadelphia: J. Benjamins Pub. Co. 1990. – 258p.; Cabré M. T. Terminology: Theory, methods and applications. Philadelphia PA, John Benjamins, 1998. –248 p.; Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура / В. М. Лейчик. Изд. 2-е. – М.: КомКнига, 2006. – 256 с.

⁴ Бекишева Е. В. Формы языковой репрезентации гносеологических категорий в клинической терминологии: Автореф. дис. д-ра филол. наук / Е. В. Бекишева. М., 2007. –50 с.; Zubova L.Yu. Английские медицинские аббревиатуры как часть профессиональной языковой картины мира: на фоне их русских и французских аналогов: Дис. канд. филол. наук / Л. Ю. Зубова. –Воронеж, 2009. 244 с.; Кириллова Т. С. Пути формирования

E.A.Kostyashina, T.G.Karimshakova, A.A.Golubix⁵ tomonidan, tibbiy terminologiyaga oid qarashlar S.I.Madjayeva, T.A.Trafimenkova, G.A.Abramova⁶larning ilmiy ishlarida asoslab berilgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham tibbiy birliklarga oid izlanishlar olib borilib, M.K.Abuzalova, B.T.Suyunov, B.Z.Gafurov, D.R.Sobirova, M.G.Navruzova, M.U.Abduraxmonova, D.K.Xudoyqulova, F.X.Qosimova, S.K.Yorova, F.I.Abdulxairova, A.B.Qobilova, N.I.G‘aybullayeva, M.Sh.Yunusova, G.L.Babayeva, Z.G.Qodirova, N.B.Usmonova, K.R.Fatullayevalarning⁷ tadqiqotlarida tibbiy birliklarning semantik, funksional, kognitiv va leksikografik xususiyatlari muayyan darajada yoritilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanish omillari ichki va tashqi omillar

и лексикологические особенности английской терминологии подязыка медицины: Автореф. дис... канд. филол. наук / Т. С. Кириллова. Пятигорск, 1990. - 17 с.; Мишланова С. Л. Термин в медицинском дискурсе (образование, функционирование, развитие): Дис... д-ра филол. наук / С. Л. Мишланова. М., 2003. - 392 с.; Новодранова, В. Ф. Когнитивные аспекты терминологии /В. Ф. Новодранова // Мат-лы Первой Международной школы-семинара по когнитивной лингвистике: в 2 ч. / отв. ред. Н. Н. Болдырев. Тамбов: Тамбовский гос. ун-т, 1998. - Ч. 1. -С. 13-15.

⁵ Бейлинсон Л. С. Профессиональный дискурс: признаки, функции, нормы (на материале коммуникативной практики логопедов): Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2009. – 39 с.; Жура В. В. Дискурсивная компетенция врача в устном медицинском общении. Монография. – Волгоград: Дарко, 2008. – 376 с.; Костяшина Е. А. Дискурсивное взаимодействие в текстовом пространстве научно-популярного медицинского журнала: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Томск, 2009. – 29 с.; Карымшакова Т.Г. Лингвистические технологии речевого воздействия в медицинском дискурсе: Дисс... канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2015. – 201 с.; Голубых А.А. Концептосфера medicine в различных типах англоязычного дискурса: Дисс... канд. филол. наук. – Самара, 2021. – 200 с.

⁶ Маджаева С.И. Медицинские терминосистемы: становление, развитие, функционирование: Автореф. дисс... д-ра филол. наук. –Волгоград, 2012. – 38 с.; Трафименкова Т.А. Терминология болезней как объект ономазиологического, семантико-парадигматического и лексикографического исследования: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Орел, 2008. – 21с.; Абрамова Г. А. Медицинская лексика: основные свойства и тенденции развития (на материале русского языка). – Краснодар: КубГУ, 2003. – 241 с.

⁷ Abuzalova M. Peculiarities Of the Integration of Linguistics and Medicine <https://mjl.clarivate.com/mjl-beta/home>. Web of Science Group, a Clarivate company. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – Vol. 27.– No. 1. –2021.; Суюнов Б.Т. Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси: Фил.фан. доктори (DSc) дисс... – Тошкент, 2023. – 222 б.; Гафуров Б.З. Медицинская лексика в рекламном дискурсе: функционально-семантический и лингвокультурологический аспекты (на материале русского и узбекского языков): Дисс... докт. филол. наук (DSc). –Бухара, 2023. – 256 с.; Sobirova D.R. Tibbiy reklamalarning antroposentrik tadqiqi: Filol.fan. doktori (DSc) avtoref. – Navoiy, 2025. – 76 b.; Navruzova M.G. Tibbiy birliklarning leksikografik tadqiqi: Filol.fan. doktori (DSc) avtoref. – Buxoro, 2026. – 72 b.; Abduraxmanova M.U. Kasallik nomlarining semantik va pragmatik tadqiqi (o‘zbek, rus, ingliz tillari misolida): Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. – Andijon, 2023. – 56 b.; Худойкулова Д.К. Фармацевтик терминларнинг лексикографик ва функционал-семантик тадқиқи (инглиз, рус, ўзбек тиллари мисолида): Фил.фан. бўй.фалсафа доктори (PhD) автореф. –Бухоро, 2022. – 52 б.; Қосимова Ф.Х. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи: Фил.фан. бўй.фалсафа доктори (PhD) автореф. –Андижон, 2022. – 56 б.; Yorova S.K. Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari: Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. – Samarqand, 2023. – 49 b.; Abdulxairova F.I. Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2024. –80 b.; Кобилова А.Б. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида тиббий перифразларнинг хусусиятлари: Фил. фан. бўй. фалсафа доктори (PhD) автореф. – Бухоро, 2022. – 54 б.; G‘aybullayeva N.I. O‘zbek tilida “kasallik” va “salomatlik” konseptining lingvomadaniy, leksikografik tavsifi: Filol.fan. doktori (DSc) avtoref. – Buxoro, 2023. – 76 b.; Navruzova M.I. O‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari: Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. – Buxoro, 2023. – 58 b.; Yunusova M.Sh. Shifokor nutqida pragmatolingvistik yondashuv: Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. – Buxoro, 2024. – 54 b.; Babayeva G.L. Tibbiy diskurs: nutq strategiyasi va taktikasi: Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. –Andijon, 2024. – 54 b.; Qodirova Z.G. Tibbiyot terminlari ontologik modelini yaratish va ularning semantikasi: Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2025. – 52 b.; Usmonova N.B. Tibbiy-sog‘lomlashtirish diskursi transformatsiyasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari: Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. – Namangan, 2025. – 55 b.; Fatullayeva K.R. Tibbiy birliklarda sinonimik va antonimik munosabatlar (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol.fan. bo‘y. falsafa doktori (PhD) avtoref. –Buxoro, 2026. – 50 b.

birligida, ularning semantik hamda nominativ-struktur tasnifi bilan uzviy bog‘liq holda yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, tibbiy terminologiyani takomillashtirish, uni me‘yorlashtirish mezonlari va zamonaviy rivojlantirish yo‘nalishlarini yagona tizimda tadqiq etish masalasi alohida monografik yo‘sinda yoritilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2022-2026 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili tibbiy terminologiyasining shakllanish omillarini tizimli ravishda aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tili tibbiy terminologiyasini nazariy-metodologik asoslar doirasida o‘rganish, terminlarning maxsus til tizimi sifatlarini aniqlash hamda kognitiv, diskursiv va sotsiolingvistik yondashuvlarni tahlil qilish;

o‘zbek tili tibbiy terminlarining leksik-semantik qatlamini tahlil qilish va uning shakllanish omillarini aniqlash;

tibbiy terminlarning so‘z yasash (derivatsion), sintaktik (analitik) va metaforik-kognitiv xususiyatlarini o‘rganish;

o‘zbek tibbiy terminlarining paydo bo‘lishidagi tashqi omillarni: tarixiy-madaniy kontekst, ilmiy-integratsion omillar, tarjima va til siyosati bilan bog‘liq jihatlar, globalizatsiya va zamonaviy texnologik ta’sirlarni tahlil qilish;

o‘zbek tili tibbiy terminlarining lingvistik-struktural, jumladan, semantik va nominativ-struktur tasnifni ishlab chiqish;

o‘zbek tili tibbiy terminologiyasini takomillashtirish masalalarini aniqlash, jumladan, muammoli holatlar hamda ularning tahlili, terminlarni me‘yorlashtirish mezonlarini ishlab chiqish va terminologiyani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilidagi tibbiy terminlar va ularning shakllanish jarayonlari asos qilib olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili tibbiy terminlarining ichki va tashqi shakllanish omillari, terminlarning derivatsion va strukturaviy modellarini, metaforik-kognitiv asoslarini, shuningdek, ularni me‘yorlashtirish va rivojlantirish masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahliliy, tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tipologik, tarixiy-etimologik, kognitiv-lingvistik, terminografik va normativ kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili tibbiy terminologiyasining nazariy-metodologik asoslari, unda kognitiv (*tafakkur va konseptlar bilan bog‘liq*), diskursiv (*nutq va kommunikatsiya doirasida*) va sotsiolingvistik (*ijtimoiy til muhitiga oid*) yondashuvlarning o‘zaro konseptual bog‘liqligi, funksional uyg‘unligi va integrativ xususiyatlari aniqlangan;

o'zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida ichki (*leksik-semantik, derivatsion, sintaktik, metaforik-kognitiv*) va tashqi (*tarixiy-madaniy, ilmiy-integratsion, tarjima va globalizatsion*) omillarning termin hosil bo'lishidagi funksional o'rni hamda ularning o'zaro bog'liqligi, mazkur omillarning tibbiy terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va me'yorlashuviga ta'sir etish mexanizmlari asoslangan;

tibbiy terminlarning semantik tasnifi lingvistik, funksional mezonlar asosida: anatomo-morfologik (*nerv, arteriya*), fiziologik (*sekretsiya, innervatsiya*), patologik (*niktalgiya, urikemiya*), diagnostik (*biopsiya, auskultatsiya*), terapevtik (*immunizatsiya, karantin*) va farmakologik (*nitrofuran, kanamitsin*) guruhlariga oid terminlarning konseptual modeli hamda ularning semantik-funksional xususiyatlari, o'zaro paradigmatic munosabatlari dalillangan;

o'zbek tili tibbiy terminlarining nominativ-struktur tasnifi: sodda (*yo'tal, niqriz, shifokor*), qo'shma (*filoyoq, qorason, bezgakdori*), birikmali (*ichki sekretsiya, ko'z oqi, yurakni defibrillash*) va qisqartma (*YIK, O'zmedimpeks, sanepid*) terminlarning struktur-tipologik modellari hamda ularning hosil bo'lishidagi derivatsion va nominatsion qonuniyatlar, nominatsiya mexanizmlari va struktur-semantik xususiyatlari aniqlangan;

o'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirish va me'yorlashtirishning ilmiy-metodik asoslariga doir takliflar, terminlarni me'yorlashtirish mezonlari (*aniqlik, bir ma'nolilik, qisqalik, tizimlilik, barqarorlik va xalqaro moslik*), zamonaviy terminologik lug'atlar va raqamli terminologik platformalarni yaratishning konseptual tamoyillari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tili tibbiy terminologiyasining ichki va tashqi shakllanish omillari, ularning leksik-semantik, derivatsion, sintaktik va metaforik-kognitiv xususiyatlari asosida tibbiyot, lingvistika va ilmiy kommunikatsiya yo'nalishidagi tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

o'zbek tili tibbiy terminlarining semantik-strukturaviy tasnifi, kognitiv va diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish natijasida klinik, ilmiy va ta'lim jarayonlarida terminlarning amaliy qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlarda foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

tibbiy terminlar bo'yicha ishlab chiqilgan me'yorlashtirish va standartlashtirish tavsiyalari, shuningdek, zamonaviy lug'atlar yaratish konsepsiyasi o'zbek tili tibbiy terminologiyasini rivojlantirish, elektron korpuslarni boyitish va amaliy ta'lim jarayonida samarali vosita sifatida qo'llanilishini isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuv va nazariy asoslar aniq ilmiy manbalardan olinganligi, muammo tadqiqi ilg'or ilmiy konsepsiya va lingvistik tahlil metodologiyasiga asoslanganligi, tahlil natijalari struktural, substansial, modellashtirish, qiyoslash, tavsiflash, lingvopragmatik usullar orqali aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalar amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili tibbiy terminologiyasini o'rganishda integrativ

yondashuvning nazariy asoslarini rivojlantirish, uning shakllanish omillari hamda semantik va nominativ-struktur xususiyatlarini boyitish, tibbiy terminologiyani etimologik, kognitiv va funksional jihatdan izohlash muammolarini hal etishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilishi, shuningdek, terminshunoslik, semasiologiya, kognitiv tilshunoslik va soha lingvistikasi nazariyasini rivojlantirishga hissa qo'shishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tadqiqot materiallaridan oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida hozirgi o'zbek adabiy tili, sohaviy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik masalalari, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, terminologiya fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda; ma'ruza, amaliy hamda seminar mashg'ulotlari, maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. O'zbek tili tibbiy terminologiyasining shakllanish omillari mavzusi doirasida olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

o'zbek tili tibbiy terminologiyasining nazariy-metodologik asoslari, unda kognitiv (tafakkur va konseptlar bilan bog'liq), diskursiv (nutq va kommunikatsiya doirasida) va sotsiolingvistik (ijtimoiy til muhitiga oid) yondashuvlarning o'zaro konseptual bog'liqligi, funksional uyg'unligi va integrativ xususiyatlari natijasida olingan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida 2024-2025-yillarda bajarilgan ALM-202310132634 raqamli "Yangi so'z va atamalarning o'zbekcha muqobilini sun'iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta'minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2026-yil 23-apreldagi NC01383716-01-285-son ma'lumotnomasi). Natijada tibbiy terminlarning leksik-semantik jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan;

o'zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida ichki (leksik-semantik, derivatsion, sintaktik, metaforik-kognitiv) va tashqi (tarixiy-madaniy, ilmiy-integratsion, tarjima va globalizatsion) omillarning termin hosil bo'lishidagi funksional o'rni hamda ularning o'zaro bog'liqligi aniqlanib, mazkur omillarning tibbiy terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va me'yorlashuviga ta'sir etish mexanizmlaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida 2022-2023-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli "Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2026-yil 23-apreldagi LG84434254-01-286-son ma'lumotnomasi). Natijada terminlarning shakllanish omillarini tizimli tahlil qilish, elektron

platformada milliy nomlarni shakllantirish va ularni me'yoriy hamda izchil qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

tibbiy terminlarning semantik tasnifi lingvistik, funksional mezonlar asosida: anatomo-morfologik (nerv, arteriya), fiziologik (sekretsiya, innervatsiya), patologik (niktalgiya, urikemiya), diagnostik (biopsiya, auskultatsiya), terapevtik (immunizatsiya, karantin) va farmakologik (nitrofuran, kanamitsin) guruhlariga oid terminlarning konseptual modeli hamda ularning semantik-funksional xususiyatlari, o'zaro paradigmatic munosabatlari asosidagi xulosalardan 2025-2026-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro" viloyati teleradiokanalining "Assalom, Buxoro", "Najot bilimda" teleko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2026-yil 22-apreldagi 01-135-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tasnif asosida tibbiy tushunchalarni semantik guruhlar bo'yicha tizimli yoritish imkoniyati, ularning ma'rifiy mazmunini boyitish hamda ko'rsatuvlarning g'oyaviy-uslubiy sifatini oshirishga xizmat qilgan;

o'zbek tili tibbiy terminlarining nominativ-struktur tasnifi: sodda (yo'tal, niqriz, shifokor), qo'shma (filoyoq, qorason, bezgakdori), birikmali (ichki sekretsiya, ko'z oqi, yurakni defibrillash) va qisqartma (YIK, O'zmedimpeks, sanepid) terminlarning struktur-tipologik modellari hamda ularning hosil bo'lishidagi derivatsion va nominatsion qonuniyatlar, nominatsiya mexanizmlari va struktur-semantik xususiyatlariga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 60320100 – Jurnalistika. Noshirlik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Tahrir mahorati" nomli darsligining "Tahrir mahorati"da lug'at bilan ishlash", "Uslubiy xatolar ustida ishlash" mavzularida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-oktabrdagi 387-son buyrug'i, 778911-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada mavzuga oid ma'lumotlar ilmiy jihatdan boyib, darslik takomillashgan;

o'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirish va me'yorlashtirishning ilmiy-metodik asoslariga doir takliflar, terminlarni me'yorlashtirish mezonlari (aniqlik, bir ma'nolilik, qisqalik, tizimlilik, barqarorlik va xalqaro moslik), zamonaviy terminologik lug'atlar va raqamli terminologik platformalarni yaratishning konseptual tamoyillariga doir yondashuvlar 70230101 – Lingvistika (tillar bo'yicha) (o'zbek) ta'lim yo'nalishi magistrleri uchun yaratilgan "Psixolingvistika" hamda "Psixolingvistika asoslari" darsliklarini tayyorlashda qo'llanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug'i, 55281-raqamli nashr ruxsatnomasi; 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug'i, 154377-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada darsliklarning ilmiy mazmuni boyitilib, terminologiyaga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar yanada takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, 3 ta darslik, O'zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (shu jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 239 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ishning dolzarbligi, mavzu yuzasidan xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari, ilmiy faraz, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, ishning sinovdan o'tishi, natijalarning e'lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'zbek tili tibbiyot terminologiyasini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanadi. Bobning birinchi **“Tibbiyot terminologiyasini tilning maxsus tizimi sifatida o'rganish”** faslida tibbiyot terminologiyasi zamonaviy tilshunoslikda maxsus (sohaviy) til tizimi sifatida ma'lum ilmiy sohaga oid konseptual bilimlar majmuasini izchil, nisbatan yopiq leksik-sistem birliklar orqali ifodalashi izohlangan. Terminologiya nazariyasida “termin”, “terminologiya” va “terminosistema” tushunchalari farqlanadi: terminologiya – muayyan fan yoki amaliy faoliyat sohasida shakllangan barcha terminlar majmui; terminosistema esa shu terminlarning ichki konseptual va mantiqiy bog'lanishlari asosida tuzilgan tizimli butunlikdir ⁸.

Terminologiya va terminosistema o'rtasidagi munosabat – miqdoriy jamlanmadan sifat ko'rsatkichiga, ya'ni tarqoq leksik fondan qat'iy konseptual modelga o'tish bosqichidir. Bu esa o'zbek ilmiy nutqi va sohaviy leksikasini me'yorlashtirishda terminologik birliklarni oddiy ro'yxat sifatida emas, balki o'zaro bog'liq yaxlit tizim sifatida tadqiq etish zaruratini belgilab beradi. Demak, tibbiy terminologiyani oddiy “tibbiy so'zlar to'plami” emas, balki tibbiy bilimlar manzarasini aks ettiruvchi konseptual-lisoniy model sifatida o'rganish talab etiladi (1.1-rasmga qarang):

Tushuncha	Lisoniy xususiyati	Shakllanish tabiati
<i>Termin</i>	Alohida so'z / so'z birikmasi, aniq konsept nomi	Alohida nomlash akti
<i>Terminologiya</i>	Soha terminlarining tarixan to'plangan majmuasi	Asosan rejalashtirilmagan, tabiiy
<i>Terminosistema</i>	Nazariya asosida tuzilgan, tartibli terminlar tizimi	Ongli, sun'iy tashkil etilgan

⁸ Sheremeta L. Concepts of terminology, terminology studies, the term system and the term // Актуальні питання гуманітарних наук. Вип 35, том 6, 2021. –Р. 140-145. <https://doi.org/10.24919/2308-4863/35-6-21>

“1.1-rasm”. Termin – terminologiya – terminosistema tushunchalarining qiyosi

Tibbiyot terminologiyasining maxsus til tizimi sifatidagi asosiy belgilari quyidagilardan iborat:


- terminlarning monosemantikligi, ya’ni imkon qadar bitta tushunchani ifodalashi;
- tizimlilik, ya’ni terminlarning o‘zaro paradigmatic va sintagmatik munosabatlarda bo‘lishi;
- xalqaro xarakter, ya’ni yunon-latin elementlari orqali turli tillarda tushunarli;
- normativlik va standartlashuvga intilish.

Shuningdek, mazkur faslda o‘zbek tilshunosligida tibbiy birliklarni maxsus til tizimi sifatida quyidagi olimlar tomonidan ilmiy o‘rganilgani yoritilgan: B.T.Suyunov semantik va kognitiv jihatlarini, M.U.Abduraxmanova kasallik nomlarining semantik-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy asosda, M.K. Abuzalova va D.A.Ahmadova xalqona va terminologik birliklar o‘rtasidagi munosabatni, F.I. Abdulxairova metaforik modellashirishni, F.A.Akbarxodjayeva qiyosiy-lingvistik xususiyatlarni, S.X. Alimatova terminologik lug‘atchilik tamoyillarini, M.B. Norova va I.Z. Narziyeva terminologik tizimning nazariy asoslarini, O.N.To‘raqulova stilistik xususiyatlarni, X.T.Buronova esa genetik-etimologik jihatlarini tadqiq etganiga oid tahlillar berilgan.

Mazkur bobning **“Zamonaviy lingvistik yondashuvlarda tibbiy termin tadqiqi: kognitiv, diskursiv va sotsiolingvistik talqin”** nomli ikkinchi faslida zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti lison ilmining turli sohalarida yangi metodologik yondashuvlarni shakllantirgani, ayniqsa, terminologiyada ilmiy nutqning konseptual, kommunikativ va ijtimoiy jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini yaratgani yoritilgan.

Tilshunoslikda kognitiv, diskursiv va sotsiolingvistik yondashuvlarning shakllanishi tibbiy terminlarni kompleks tarzda o‘rganishga yo‘l ochdi. Kognitiv yondashuv terminlarning konseptual asosini, diskursiv yondashuv ularning nutq kontekstidagi funksiyasini, sotsiolingvistik yondashuv esa ijtimoiy muhit va kasbiy kommunikatsiyadagi rolini ochib beradi.

Kognitiv yondashuv tibbiy terminlarni faqat “quruq” ilmiy ta’rif sifatida emas, balki bilimlarni *kodlovchi, saqlovchi* va *uzatuvchi konseptual birlik* sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv terminlarning mazmuniy qatlamlarini kengaytirib, ularni inson tafakkuri, kasbiy tajriba va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga imkon yaratadi. Natijada, tibbiy terminologiya lingvistik tizimning kognitiv asoslarini yorituvchi muhim manba sifatida ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi (1.2-rasmga qarang):



“1.2-rasm”. Tibbiy terminlar konseptosferasining iyerarxik modeli

Zamonaviy *tibbiy diskursda* terminlar nafaqat to‘g‘ridan to‘g‘ri nominativ ma’noda, balki metaforik modellashtirish asosida ham faol qo‘llaniladi. Ushbu holat tibbiy tushunchalarni inson tafakkuriga yaqinlashtirish, murakkab fiziologik va patologik jarayonlarni kognitiv jihatdan soddalashtirish hamda muayyan pragmatik maqsadlarga erishish bilan izohlanadi.

Diskursiv yondashuv nuqtayi nazaridan tibbiy terminlar emotsional va pragmatik boshqaruv funksiyasini ham bajaradi. Ayrim kommunikativ vaziyatlarda terminlarning yumshatilgan sinonimlari yoki og‘zaki nutqqa xos birliklar shaklida qo‘llanilib, bemorda xavotir va qo‘rquv hissini kamaytirish maqsad qilinadi. Masalan, o‘smalar bilan bog‘liq muloqotda shifokorlar dastlab “yaxshi sifatli o‘zgarish” kabi nisbatan neytral ifodalarni qo‘llashi mumkin. Boshqa vaziyatlarda esa, aksincha, terminlarning rasmiy va qat’iy shaklda ishlatilishi ogohlantiruvchi yoki ta’sirchan pragmatik effektini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, profilaktik tibbiy diskursda *onkologik xavf* yoki *yuqumli kasallik* terminlarining aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanishi bemorni mas’uliyatli qaror qabul qilishga undaydi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tibbiy terminlar amaliy muloqot jarayoniga turli usullarda moslashtiriladi. Terminologik va registr variatsiyasi, ya’ni tibbiy va sodda nomlarning almashib qo‘llanishi – turli ijtimoiy va madaniy auditoriyalarga moslashish hamda sog‘liq savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Kod-almashish orqali murakkab tibbiy mazmun ommaga tushunarli, sodda til vositasida tushuntiriladi, bu esa muloqot samaradorligini oshiradi va tibbiyot xodimi – bemor o‘rtasida ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Shuningdek, og‘ir tashxis va holatlarni ifodalashda evfemizatsiya va yumshatish strategiyalari qo‘llanilib, bemorga emotsional jihatdan ma’qulroq

axborot yetkazish maqsad qilinadi⁹. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy nutqda esa tibbiy terminlarning metaforik va obrazli qo'llanishi sog'liq haqidagi ommaviy tasavvurlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, sotsiolingvistik terminologiya doirasida tibbiy terminlar ijtimoiy sinf, til kompetensiyasi, madaniy kontekst, kuch munosabatlari va tibbiy savodxonligini aks ettiruvchi hamda shakllantiruvchi lingvistik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu bobning uchinchi fasli ***“Tibbiyot terminologiyasini tadqiq etishda integrativ yondashuv zarurati”*** deb nomlangan. Bugunga qadar aksariyat terminologik tadqiqotlarda terminlar ko'proq leksik-semantik birlik sifatida tahlil qilindi. Biroq tibbiyot terminlari oddiy nominativ birliklar emas, ular murakkab ilmiy tushunchalarning til shaklidagi ifodasidir. Termin ortida tibbiy konsepsiya, klinik tajriba, anatomiya, fiziologiya, patologiya va boshqa ko'plab fanlarga oid bilimlar mujassam bo'ladi. Shu sababli tibbiyot terminologiyasini o'rganish faqat lingvistik doira bilan cheklanib qolmasligi, balki fanlararo, ya'ni integrativ yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Tibbiyot terminlari murakkab ilmiy tushunchalarni ifodalaydi, ularni to'liq anglash uchun tibbiy bilimlar tizimiga tayanish zarur bo'ladi. Shunda tibbiy terminlarning ikki tabiatliligi oydinlashadi: terminning o'zi til tizimiga kiradi, lekin mazmunan tibbiyot faniga tegishli. Ko'rinadiki, unda lingvistik va ilmiy mohiyatning uzviy bog'liqligi aks etadi. Shu bois, termini faqat til hodisasi yoki faqat ilmiy tushuncha sifatida o'rganish yetarli emas, balki uni tilshunoslik va tibbiyot fanlari kesishmasida kompleks yondashuv asosida tahlil qilish zarurdir (1.3-rasmga qarang):



“1.3-rasm”. Tibbiy termin modeli

Tibbiyot terminlarining etimologik murakkabligi, avvalo, ularning ko'p komponentli tuzilishida namoyon bo'ladi. Masalan, ko'plab terminlar yunoncha yoki lotincha ildiz, prefiks va suffikslarning birikishidan tashkil topgan bo'lib, har bir morfema ma'lum semantik yukni tashiydi. “Kardio-” (yurak), “nevro-” (miya, asab), “gastro-” (oshqozon), “derma-” (teri) kabi komponentlar tananing muayyan a'zolari bilan bog'liq tushunchalarni bildirsa, “-it”, “-oz”, “-oma” singari affikslar kasallik, yallig'lanish yoki patologik o'sish holatlarini ifodalaydi. Bu holat terminning tashqi shakli bilan ichki mazmuni o'rtasida tarixiy jihatdan shakllangan muvofiqlik mavjudligiga ishora qiladi.

Tibbiyot terminologiyasi nafaqat nazariy-lingvistik tizim, balki bevosita *klinik amaliyot* bilan uzviy bog'langan ilmiy vosita sifatida hamdir. Har bir termin shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotda, tashxis qo'yish jarayonida, klinik hujjatlarni rasmiylashtirishda hamda davolash strategiyasini belgilashda asosiy

⁹ Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмларн (тиббий даврий нашрлар асосида): Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф.– Бухоро, 2019. –54 б.

axborot birligi bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli terminning aniqligi tibbiy faoliyat samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Integrativ yondashuvning yana bir muhim jihati – *tarjimashunoslik* bilan bog‘liqligidir. Tibbiyot terminlari ko‘pincha turli tillar doirasida shakllanadi. Ularni milliy tilga moslashtirish, ekvivalent topish yoki yangi termin yaratish jarayoni lingvistik bilim bilan birga tibbiy mazmunni chuqur anglashni ham talab qiladi. Aks holda, noto‘g‘ri yoki noaniq termin qo‘llanishi ilmiy axborotning buzilishiga olib kelishi mumkin (1.4-rasmga qarang):

Xorijiy termin	O‘zbekchalashtirilgan variant	Moslashtirilgan izohli tarjima
evidence-based medicine	dalillarga asoslangan tibbiyot	Klinik tadqiqotlarga tayangan davolash tizimi
diagnosis	tashxis	Kasallikni aniqlash jarayoni
symptom	alomati / belgi	Kasallikning klinik ko‘rinishlari
therapy	davolash (terapiya)	Kasallikni bartaraf etish usullari majmui
prevention	oldini olish (profilaktika)	Kasalliklarning profilaktikasi
pathology	kasallik jarayoni /nosog‘lom holat (patologiya)	Organizmga kechadigan patologik o‘zgarishlar
rehabilitation	tiklanish / sog‘lomlashtirish	Yo‘qotilgan funksiyalarni qayta tiklash jarayoni
intoxication	zaharlanish	Zaharli moddalar ta’sirida organizmning zararlanishi
infection	infeksiya / yuqumli kasallik	Mikroorganizmlar ta’sirida kasallanish
anamnesis	kasallik tarixi (anamnez)	Bemorning oldingi kasalliklari va holati haqida ma’lumot
screening	profilaktik tekshiruv	Kasallikni erta aniqlash jarayoni
consultation	maslahat	Mutaxassis tomonidan beriladigan tavsiya
hospitalization	shifoxonaga yotqizish	Bemorni statsionar davolanishga joylashtirish

“1.4-rasm”. Tibbiy terminlarning ko‘pqatlamli (ilmiy-amaliy-xalqona) ifodasi

Terminlarni lingvistik birlik sifatida emas, balki ilmiy konsept, tarixiy meros, kognitiv model va amaliy vosita sifatida o‘rganish ularning haqiqiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Fanlararo yondashuvga tibbiyot terminologiyasining murakkab tabiatini to‘liq yoritish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanish tizimi: ichki va tashqi omillar”** deb nomlanib, birinchi *“O‘zbek tilida qo‘llanuvchi terminlarning shakllanishida ichki omillar”* fasli o‘z ichida yana 4 bo‘limga bo‘lingan. Ushbu faslda o‘zbek tili tibbiy terminlarining shakllanish jarayonida ichki lingvistik omillar muhim va barqaror omil sifatida namoyon bo‘lishi tahlil qilingan. Mazkur omillar tilning o‘z imkoniyatlari, ya’ni leksik, semantik, morfologik va so‘z yasash tizimlari asosida terminologik birliklarning vujudga kelishini ta’minlaydi.

Ushbu faslning dastlabki “*Leksik-semantik omillar*” (2.1.1.) nomli kichik bo‘limida o‘zbek tili tibbiy terminologiyasining ichki boyishida leksik-semantik omillar muhim va yetakchi o‘rin egallashi yoritilgan. Ushbu omillar, avvalo, tilning o‘z qatlamiga mansub bo‘lgan so‘zlarning yangi ilmiy-tibbiy tushunchalarni ifodalash jarayonida semantik jihatdan qayta tashkil topishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbek tili tibbiy terminologiyasida *semantik torayish* hodisasi tilning ichki leksik imkoniyatlari hisobiga termin hosil bo‘lishining muhim usullaridan biri sanaladi. Bu jarayonda umumxalq tilida keng va ko‘p qirrali ma’noga ega bo‘lgan leksema tibbiy diskurs doirasida ma’lum bir fiziologik yoki patologik holatni ifodalovchi maxsus termin sifatida barqarorlashadi. Masalan, “tugun” leksemasi umumxalq tilida oddiy bog‘lash yoki ipning chigal joyini bildiradi. Biroq tibbiyotda “узель – nodus – tugun” maxsus terminologik ma’noga ega bo‘lib, organizm to‘qimalarida hosil bo‘ladigan patologik yoki anatomik tuzilma (o‘sma, shish yoki zichlashgan o‘choq)ni anglatadi. Shu jihatdan “tugun” leksemasi umumiy ma’nodan klinik-terminologik ma’noga o‘tib, aniq tibbiy konseptni ifodalovchi birlikka aylanadi. Shuningdek, *shish*, *so‘lish*, *bog‘ich*, *oqchil*, *do‘mboqcha*, *ko‘st* kabi leksemalar semantik jihatdan torayish natijasida aniq fiziologik, patologik yoki klinik belgini ifodalovchi tibbiy termini ifodalagani batafsil yoritilgan.

Keyingi bo‘lim “*So‘z yasash (derivatsion) omillari*” (2.1.2.) deb nomlangan bo‘lib, unda tilning o‘z grammatik va morfologik tizimiga xos bo‘lgan yasovchi vositalar asosida yangi tibbiy terminlarning hosil bo‘lishi tahlil qilingan. O‘zbek tibbiy terminologiyasida eng faol va unumdor derivatsion usul – affiksatsiya, ya’ni yasovchi qo‘shimchalar yordamida termin hosil qilishdir. Bu jarayonda umumtil leksemasiga qo‘shilgan qo‘shimcha natijasida yangi, mustaqil tibbiy tushunchani ifodalovchi termin vujudga keladi. Masalan, *qaytalanish*, *taranglik*, *oqma*, *bepushtlik*, *bo‘g‘ma*, *jarrohlik* kabilar affiksatsiya mahsulidir.

O‘zbek tili tibbiy terminologiyasida kompozitsiya, ya’ni ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemaning birikishi orqali yangi termin hosil qilish usuli ichki derivatsion tuzilmaning muhim ko‘rinishlaridan biridir. Ushbu usulda hosil bo‘lgan terminlar tilning nominativ imkoniyatlariga tayangan holda murakkab tibbiy tushunchalarni ixcham, obrazli va semantik jihatdan shaffof tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *suvchechak*, *tomoqog‘riq*, *yassioyoq*, *tuyapaypoq*, *to‘tutumshuq*, *yelbo‘g‘oz* kabi terminlar kompozitsiya usulida shakllangani tahlilga tortilgan.

“*Sintaktik (analitik) omillar*” (2.1.3.) nomli kichik bo‘limda o‘zbek tili tibbiy terminologiyasining ichki boyishida sintaktik, ya’ni analitik omillar tilning so‘z birikmasi va sintaktik tuzilmalar orqali murakkab ilmiy-tibbiy tushunchalarni ifodalash imkoniyati bilan bog‘liqligi yoritiladi. Sintaktik omillar asosida shakllangan terminlar, odatda, so‘z birikmasi shaklida bo‘lib, ular bir tushunchaning turli belgilarini izchil tarzda ifodalash imkonini beradi. Masalan, *yurak xuruji*, *mayda gijja*, *po‘rsildoq yara*, *kindik tizimchasi* kabi terminlarda asosiy tushuncha (xuruj, gijja, yara, tizimcha)ga aniqlik kirituvchi komponent

orqali toraytiriladi. Bu jarayonda sintaksis termin aniqligini ta'minlovchi asosiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Sintaktik (analitik) omillarning muhim jihati shundaki, ular leksik-semantik va derivatsion imkoniyatlarni to'ldiradi. Ayrim hollarda bitta leksema yoki yasama so'z murakkab klinik tushunchani to'liq ifodalash uchun yetarli bo'lmaydi. Shunda til ichki imkoniyat sifatida sintaktik vositalarni ishga soladi. Masalan, qandli diabet terminida kasallik nomi aniqlovchi orqali farqlanadi, yuqori qon bosimi birikmasida esa fiziologik holat daraja belgisi bilan aniqlashtiriladi. Bu holat o'zbek tilining ma'no differensiallash imkoniyatlari sintaktik yo'l bilan ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

II bob birinchi faslning so'nggi bo'limi "*Metaforik-kognitiv omillar*" (2.1.4.) deb nomlangan. Tibbiy terminologiyada metaforik-kognitiv omillar inson tanasining holatini idrok etish va uni til vositalari orqali nomlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'zbek tibbiy terminologik tizimida metaforik nomlash insonning sezgi tajribasi, vizual idroki bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Masalan, *qo'rg'oshinli sanchiq, bo'ri jag'i, quyon lab, Gippokrat yuzi, Odam Ato olmasi, qorataloq, qarilik ravog'i* kabilar shular jumlasidandir. Xususan, *nog'ora parda* termini eshituv apparatidagi pardaning tashqi ko'rinishi va tarangligini xalqona cholg'u asbobi – *nog'ora yuzasiga o'xshatish* asosida vujudga kelgan.

Nog'ora parda (Membrana Tympani) – tashqi eshituv yo'lini *nog'ora bo'shlig'idan ajratib turadigan nozik, elastik parda*¹⁰.

Quyida o'zbek tili tibbiy terminologiyasining ichki boyishida muhim omillarning jadvalda umumlashtirilgan ko'rinishi keltirilgan (2.1-rasmga qarang):



“2.1-rasm”. Ichki omillar asosida tibbiy terminlarning boyishi

¹⁰ Usmanxodjayev A., Abilov O'., Turaxanova M. Tibbiy atamalar lug'ati / A. Usmanxodjayev, O'., Abilov, M. Turaxanova. – Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2022. –B.33.

Bobning ikkinchi fasli “O‘zbek tilida qo‘llanuvchi terminlarning shakllanishida tashqi omillar” deb nomlanadi va 4 kichik bo‘limni qamrab olgan. Mazkur faslda O‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tashqi omillar tizimli ravishda guruhlanib, misollar asosida tahlil qilingan.

Ushbu faslning birinchi bo‘limi “Tarixiy-madaniy omillar” (2.2.1) deb nomlangan. Antik davr yunon va lotin tibbiy merosi, o‘rta asr arab-musulmon ilmiy maktabi hamda fors-tojik madaniy muhiti o‘zbek tibbiy terminologiyasining eng qadimiy tashqi manbalarini tashkil etadi. Ularning ta’siri faqat leksik o‘zlashuv bilan cheklanmay, kasallikni tasniflash, organizm tuzilishini izohlash va muolaja usullarini nomlash kabi konseptual tizimlarning shakllanishida ham namoyon bo‘lgan. Yunon ilmiy merosining arab tiliga tarjima qilinishi va keyinchalik Markaziy Osiyo ilmiy muhitida qayta talqin qilinishi terminologik qatlamning murakkab tarixiy yo‘lini belgilab bergan, natijada yunoncha kelib chiqishga ega ko‘plab terminlar o‘zbek tiliga arab, so‘ngra Yevropa (lotin, rus) tillari orqali kirib keladi. Shuningdek, tibbiy terminlarning morfologik tizimida yunon tiliga mansub suffiksalar muhim o‘rin egallaydi, masalan, yunon tilidagi yallig‘lanish jarayonini bildiruvchi **-it** (-itis) qo‘shimchasi: “bronxit”, “gastrit”; **-oz** (-osis) (kasallik, patologik holat): “skleroz”, “skolioz”; **-logia** (fan, ta’limot): “onkologiya”, “oftalmologiya”; **-pathia** (kasallik, iztirob): “apatiya”; o‘smaga oid ma’noni anglatuvchi **-oma** (-oma): “sarkoma”, “lipoma”; og‘riqni bildiruvchi **-algia** (-algia): “nevralgiya”, “mialgiya” kabi modellarning o‘zbek tilida ham faol qo‘llanishi terminlarning xalqaro va tizimli xususiyatini ko‘rsatadi.

Lotin tili uzoq yillik tarixiy ildizlarga ega bo‘lishiga qaramay, zamonaviy tibbiyot amaliyotida ham o‘z dolzarbligini saqlab kelayotgan xalqaro ilmiy til sifatida baholanadi. Bugungi kunda ham xalqaro anatomik terminologiya tizimi (Terminologia Anatomica) lotin tiliga asoslanadi. “Cor”, “hepar”, “ren”, “musculus”, “arteria”, “vena” kabi terminlar xalqaro miqyosda lotincha asosda qo‘llanadi. O‘zbek tibbiy terminologiyasiga bu birliklar ko‘proq rus tili orqali kirib kelgan bo‘lsa-da, ularning shakli va yozilishida lotin tilidagi asos saqlanib qolgan: *angina, appendiks, botulizm, retsidiv, immunitet, limfa* va h.k.

Shuningdek, mazkur qismda o‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida arab-musulmon ilmiy maktabining o‘rni yoritilib, VIII–XIII asrlarda islom sivilizatsiyasi hududida yuzaga kelgan ilmiy taraqqiyot, yunon merosining arab tiliga tarjima qilinishi va tizimlashtirilishi natijasida arab tilining xalqaro tibbiy tilga aylangani asoslab berilgan. Markaziy Osiyo allomalari, xususan, Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziy faoliyati orqali terminlarning turkiy til muhitiga kirib kelishi nafaqat leksik o‘zlashuv, balki konseptual tizimning ko‘chishi sifatida talqin qilinib, “mizoj”, “xilt”, “maraz”, “tashxis”, “muolaja” kabi terminlar misolida ularning semantik evolyutsiyasi, tarixiy va zamonaviy qo‘llanishi izohlangan.

O‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida fors-tojik ilmiy-madaniy muhitining muhim o‘rni yoritilib, mintaqadagi uzoq davom etgan ikki tillilik va madaniy integratsiya natijasida tibbiyotga oid ko‘plab tushunchalar turkiy tilga o‘zlashgani asoslanadi. Tahlil jarayonida *bachadon, bemor, bod, doya, jigar,*

karaxt, pilla, hamshira kabi terminlar misolida ularning fonetik moslashuvi, ma'no kengayishi va ixtisoslashuvi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ayrim kasallik nomlarining madaniy-mifologik asosda nomlanishi (gulafshon) hamda semantik tarkibi orqali izohlanishi (beshshira – anemiya, kamqonlik) tibbiyot, til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligini namoyon etadi.

“*Ilmiy-integratsion omillar*”(2.2.2) nomli bo'limda o'zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida ilmiy-integratsion omillarning roli yoritilib, XIX–XX asrlarda Yevropa klinik tibbiyotining rivoji, yunon-lotin asosidagi xalqaro terminlar tizimining standartlashuvi va yagona tasniflarning yaratilishi natijasida milliy tibbiy tilning global ilmiy makonga integratsiyalashgani asoslanadi. Parij va Vena klinik maktablari faoliyati natijasida kasalliklarni klinik kuzatuv, patologoanatomik tahlil va laborator tekshiruv asosida o'rganish yo'lga qo'yilib, anatomo-klinik yondashuv shakllandi. Bu jarayonda *to'qima, gistologiya, lesiya, degeneratsiya, nekroz* kabi morfologik aniqlikka asoslangan terminlar mustahkamlandi. Shuningdek, fizik tekshiruv metodlarining rivoji (*auskultatsiya, stetoskop, yurak shovqinlari*) va eponimik terminlarning (*Parkinson, Altsgeymer, Daun*) paydo bo'lishi, hamda hujayraviy patologiya nazariyasi asosida *hujayra, tromboz, emboliya, leykoz* kabi tushunchalarning keng qo'llanishi klinik terminologiyani ilmiy-nazariy tizim darajasiga olib chiqdi.

XX asrda esa tibbiy terminologiyaning standartlashuvi kasalliklarning xalqaro tasnifi (KXT/ICD) orqali yangi bosqichga ko'tarilib, kasalliklarni kodlash, statistik hisob yuritish va xalqaro miqyosda yagona terminologik makon yaratish imkonini berdi. Ushbu tizim kasalliklarni faqat nomlash emas, balki ularni aniq kodlar orqali tasniflash (masalan, o'pka sili –1B10.0, shizofreniya – 6A20) va klinik-amaliy faoliyatda qo'llashni ta'minladi. Natijada o'zbek tibbiy terminologiyasi milliy xususiyatini saqlagan holda global tibbiy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi.

“*Til va tarjima bilan bog'liq omillar*” (2.2.3) bo'limida esa o'zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishida til va tarjima omillari ta'sirida ilmiy tushunchalarning ko'p hollarda vositachi tillar orqali o'zlashgani hamda bu jarayon semantik, uslubiy va funksional moslashuv bilan kechgani aniqlanadi. **Rus tili orqali o'zlashuv** bosqichida XIX–XX asrlarda rus tili asosiy vositachi til sifatida xizmat qilib, yevropa (yunon-lotin asosli) terminlar (*diagnoz, terapiya, patologiya, profilaktika, epidemiologiya, rehabilitatsiya* va b.) transliteratsiya yoki tarjima yo'li bilan kirib keldi. Natijada, baynalmilal, aralash va eponimik termin modellari shakllangan. Bu jarayon terminologiyaning ilmiy va tizimli qatlamini yaratgan bo'lsa-da, ayrim hollarda milliy termin yasash imkoniyatlarini cheklagan.

Zamonaviy bosqichda esa **ingliz tilidan bevosita o'zlashuv** natijasida *skrining, monitoring, stent, bypass, PCR, CT, MRI* kabi terminlar vositachisiz kirib kelib, terminologiyaning innovatsion qatlamini yuzaga keltirdi, ularning fonetik moslashuvi va qisqartma shaklda qo'llanishi, shuningdek, o'zbekcha muqobillar bilan parallel ishlatilishi ikki qatlamlilikni shakllantirdi. Shu bilan birga, **boshqa tillar orqali o'zlashuv** (fransuz, nemis, italyan) natijasida *buj, bandaj, karantin, migren, patronaj, pinset, shok; feldsher, shprints, shtamm; petexiya, pellagra, pasta*

kabi terminlar asosan rus tili vositasida kirib, terminologiyaning tarixiy-madaniy ko‘lamini kengaytirdi. Umuman, ushbu uch yo‘nalish o‘zbek tibbiy terminologiyasining ko‘p manbali, tizimli va global ilmiy makon bilan uzviy integratsiyalashgan tizim sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

“Globalizatsiya va zamonaviy texnologik omillar” (2.2.4) nomli bo‘limda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globalizatsiya hamda ilmiy-texnologik taraqqiyot o‘zbek tibbiy terminologiyasini tubdan o‘zgartirgani yoritiladi. Ilgari terminlar ma’lum hudud yoki ilmiy maktablar orqali kirib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda ular xalqaro ilmiy jurnallar, klinik bayonnomalar, farmatsevtik kompaniyalar va xalqaro tasnif tizimlari orqali tezkor tarqalmoqda. Natijada yuqori texnologiya, biotexnologiya, molekulyar diagnostika va raqamli tizimlarga oid yangi birliklar shakllanib, ular ko‘pincha tayyor xalqaro shaklda, transliteratsiya yoki qisqartma ko‘rinishida o‘zlashmoqda. Shuningdek, “platforma”, “monitoring”, “algoritm” kabi birliklarning tibbiy sohada faol qo‘llanishi terminlarning semantik kengayishini ko‘rsatadi.

Raqamli tibbiyot, genetika va biotexnologiya rivoji natijasida *teletibbiyot, elektron sog‘liqni saqlash, mobil sog‘liq, onlayn konsultatsiya, masofaviy monitoring, elektron tibbiy karta* kabi terminlar keng qo‘llanilmoqda. Genetika va molekulyar biologiya bilan bog‘liq *gen, genom, genotip, mutatsiya, polimorfizm, DNK, RNK* kabi birliklar barqarorlashgan bo‘lsa, biotexnologiyaga oid *hujayra terapiyasi, ildiz hujayra, regenerativ tibbiyot, biomarker* kabi birliklar hamda shaxsga yo‘naltirilgan tibbiyot doirasidagi *farmakogenomika, prediktiv diagnostika, molekulyar profil, individual terapiya* kabi terminlar tibbiy terminologiyaning zamonaviy, yuqori ixtisoslashgan qatlamini shakllantirmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek tibbiy terminlarining shakllanish omillariga ko‘ra lingvistik-struktural tasnifi”** deb nomlanib, ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“Tibbiy terminlarning semantik tasnifi”* deb nomlanadi. Tibbiy terminlarni semantik jihatdan tasniflash masalasi terminologiyaning ichki tuzilishini anglash, tushunchalararo munosabatlarni aniqlash, shu bilan bir qatorda, ilmiy nutqning aniqligi va izchilligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy terminlar mazmunan, avvalo, inson organizmi va u bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettiradi. Shu jihati bilan boshqa terminologik tizimlardan farqlanadi.

Tibbiy terminlarni mazmunan bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan oltita semantik guruhga ajratdik (3.1-rasmga qarang):

TIBBIY TERMINLARNING SEMANTIK TASNIFI

Tibbiy terminlar tibbiyotdagi turli tushunchalarni ifodalaydi.
Ular ma'no jihatdan quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

TERMIN TURI	JAVOB BERADIGAN SAVOL	MAZMUNI (NIMA HAQIDA?)	ICHKI JIHLATLARI (QAMROVI)	MISOLLAR
 ANATOMO-MORFOLOGIK TERMINLAR	 NIMA?	Tana tuzilishi, a'zolar, to'qimalar, hujayralar va ularning shakli, tuzilishi. 	- Joylashuvi - Tuzilishi - Shakli - O'lchami - Qismi va bog'lanishi 	Oshqozon (ventriculus), jigar (hepar), suyak (os), arteriya (arteria), epidermis
 FIZIOLOGIK TERMINLAR	 QANDAY ISHLAYDI?	Organizm va uning tizimlarining normal faoliyati, funksiyalari, jarayonlari. 	- Funksiyasi - Faoliyati - Jarayoni - Me'yoriy holati 	Nafas olish (respiratio), yurak urishi (pulsus), hazm qilish (digestio), siydik ajratish (diuresis)
 PATOLOGIK TERMINLAR	 QANDAY BUZILGAN?	Kasalliklar, patologik jarayonlar, ularning sabablari, rivojlanishi va belgilari. 	- Sabablari (etiologiya) - Rivojlanishi (patogenezi) - O'zgarishlari (morfologik, funksional) - Belgilari (simptomlar) 	Gastrit (gastritis), yallig'lanish (inflammatio), o'sma (tumor), anemiya (anemia)
 DIAGNOSTIK TERMINLAR	 QANDAY ANIQLANADI?	Kasallik yoki holatni aniqlash usullari, tekshiruvlar, belgilarni baholash. 	- Tekshiruv usullari - Belgilarni aniqlash - Natijalarni baholash - Tasdiqlash 	Rentgen (radiographia), EKG (electrocardiographia), analiz (analysis), ultratovush tekshiruvi (ultrasonographia)
 TERAPEVTIK TERMINLAR	 QANDAY DAVOLANADI?	Davolash usullari, muolajalar, reabilitatsiya va profilaktika choralarini. 	- Davolash usullari - Muolajalar - Reabilitatsiya - Profilaktika 	Fizioterapiya (physiotherapia), jarrohlik (chirurgia), parhez (dieta), emlash (vaccinatio)
 FARMAKOLOGIK TERMINLAR	 NIMA DAVO BO'LADI?	Dori vositalari, ularning manbai, tarkibi va ta'siri (organizmdagi ta'sir mexanizmi). 	- Dori nomi - Manbai va tarkibi - Ta'sir mexanizmi - Farmakologik ta'siri 	Analgin (metamizolum), aspirin (acidum acetylsalicylicum), antibiotik (antibioticum), adrenalin (adrenalinum)
 XULOSA Tibbiy terminlar o'zaro bog'liq bo'lib, inson organizmini tushunish, kasallikni aniqlash va davolash jarayonida uzviy tizimni tashkil etadi.	TIBBIYOTDA UZVIY BOG'LIQLIK			

“3.1-rasm”. Tibbiy terminlarning semantik tizimi: tasnif va ichki tuzilma

Birinchi guruh – **anatomo-morfologik terminlar** bo'lib, ular organizm tuzilishini ifodalaydi va denotativ aniqligi bilan ajralib turadi (*yurak, o'pka, jigar, hujayra, nerv*). Bu qatlam makroanatomik (*yurak – cor, buyrak – ren*) va mikroanatomik (*epiteliy, eritrotsit, neyron*) birliklarga ajraladi. Ikkinchi guruh – **fiziologik terminlar**, ular organizmning funksional jarayonlarini bildiradi: *nafas olish, metabolizm, sekretsia, qon aylanishi, innervatsiya*. Masalan, *metabolizm, innervatsiya* kabi birliklarda jarayon va dinamiklik ustun. Uchinchi guruh – **patologik terminlar** bo'lib, ular me'yordan chetlashish va kasallik holatlarini nomlaydi: *anemiya, diabet, pnevmoniya, yallig'lanish, nekroz*. Bu qatlam ichida kasallik nomlari, simptomlar (*isitma*), sindromlar va morfologik o'zgarishlar (*gipertrofiya*) ajratiladi. To'rtinchi guruh – **diagnostik terminlar** bo'lib, kasallikni aniqlash va baholash usullarini ifodalaydi. Ular klinik (*palpatsiya, auskultatsiya*), laborator (*analiz, biopsiya*) va instrumental (*rentgenografiya, tomografiya, UTT*) turlarga bo'linadi; xususan, *-ografiya, -skopiya, -metriya* affiksleri tekshiruv xarakterini bildiradi. Beshinchi guruh – **terapevtik va klinik amaliyot terminlari**, ular davolash va tibbiy aralashuvni anglatadi. Bu qatlam ichida davolash usullari (*farmakoterapiya, fizioterapiya*), jarrohlik amaliyotlari (*amputatsiya,*

transplantatsiya), profilaktik choralar (*vaksinatsiya, dezinfeksiya*) hamda reabilitatsiya va klinik muolajalar (*rekonvalestsensiya, infuziya, intubatsiya*) farqlanadi. Bu terminlarda maqsadlilik va faol ta'sir semantik markazni tashkil etadi. Oltinchi guruh – **farmakologik terminlar** bo'lib, ular dori vositalari va ularning organizmga ta'sir mexanizmini ifodalaydi. Ular funksional tizimlar bo'yicha (neyrotrop vositalar, yurak-qon tomirga ta'sir etuvchilar), metabolik jarayonlarga ta'sir qiluvchilar yoki infeksiyaga qarshi preparatlar kabi ichki 11 guruhga ajratilgan.

Bobning ikkinchi fasli "*O'zbek tilida qo'llanuvchi tibbiy terminlarning nominativ-struktur tasnifi*" deb nomlanadi. Mazkur faslda o'zbek tili tibbiy terminlarining sodda, qo'shma, birikmali hamda qisqartma turlari, ularning yasaliş modeli va ichki tuzilishi misollar asosida tahlil qilingan.

Sodda tibbiy terminlar bir leksema orqali ifodalanadigan, morfologik jihatdan yaxlit birliklar bo'lib, tub va yasama turlarga ajratiladi. *Sodda tub* terminlar morfemik tahlilda bo'linmaydigan tayyor nominativ birlik sifatida qo'llanadi. Matnda *gepatit, bronxit, perikard, sklerodermiya* kabi o'zlashgan terminlar bilan bir qatorda *rak, sil, puls, tana, homila, falaj* kabi birliklar keltirilgan bo'lib, ular kasallik, anatomik tuzilma yoki fiziologik holatni bevosita nomlaydi. *Sodda yasama terminlar* esa affiksatsiya orqali hosil bo'lib, ichki tuzilishida so'z yasovchi komponent mavjudligi bilan ajralib turadi. Masalan, *yo'qlik* (*yo'q + -lik*), *sutsizlik* (*sut + -siz + -lik*), *to'sqich* (*to's + -qich*), *tomchi* (*tom + -chi*) kabi birliklarda o'zak semantik yadroni, affiks esa kasallik, holat yoki jarayonni ifodalovchi kategoriyaviy ma'noni bildiradi. Shu jihatdan sodda yasama terminlar ikkilamchi nominatsiya mahsuli sifatida terminologik tizimning ichki rivojlanish mexanizmini ko'rsatadi.

Qo'shma tibbiy terminlar ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik asosning kompozitsiyasi orqali shakllanadigan murakkab nominativ birliklar bo'lib, struktur jihatdan ko'p komponentli bo'lsa-da, semantik jihatdan yagona tushunchani ifodalaydi. Ular odatda asos + asos modeli shaklida tuziladi va komponentlar o'rtasida teng yoki tobe munosabat yuzaga keladi. Dissertatsiyada *husnbuzar, qizilmiya, ichketar, bezgakdori, quyonchiq, qontalash, oqqonlik* kabi terminlar misol sifatida berilgan. Shuningdek, *kamqonlik, boshog'riq, nafasqisma, ko'phomilalik* kabi birliklarda birinchi komponent kasallikning belgisi, sababiy omili yoki organizm holatini bildirsa, ikkinchi komponent asosiy tibbiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, *kamqonlik* terminida "kam" komponenti qon miqdorining yetishmasligini, *boshog'riq* terminida esa og'riqning lokalizatsiyasini ko'rsatadi. Shu tariqa qo'shma terminlar murakkab klinik hodisalarni ixcham va aniq nomlashga xizmat qilib, xalq tili va ilmiy terminologiya o'rtasidagi aloqani ham aks ettiradi.

Birikmali (terminologik birikma) tibbiy terminlar ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning sintaktik bog'lanishi asosida shakllanib, analitik nominatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular uch asosiy sintaktik aloqa turiga ajraladi. **Bitishuv** asosidagi birikmalarda so'zlar grammatik ko'rsatkichsiz bog'lanadi va sifat + ot (*qizil yuguruk, ichki sekretiya, bahorgi konyunktivit, sun'iy gipotermiya*) hamda ot + ot (*Mantu reaksiyasi, dori kasalliklari, kislorod terapiyasi, Kuper bezlari*) modellari keng qo'llanadi. **Moslashuvli** birikmalarda qaratqich va egalik qo'shimchalarining belgisi yoki belgisiz shaklda bog'lanishidan hosil bo'ladi:

qonning ivishi, yurakning kengayishi; diafiz yallig'lanishi, siydik tutilishi. **Boshqaruvli** birikmalarda esa tobe so'z kelishik shakli yoki ko'makchi orqali hokim so'zga bog'lanadi: *yurakni defibrillash, suvdan qo'rqish, issiqlikni boshqarish; suv bilan davolash* va h.k. Struktur jihatdan bu terminlar ikki komponentli (*qon bosimi, nerv tuguni*), uch komponentli (*markaziy asab tizimi, oliy nerv faoliyati*) va ko'p komponentli (*surunkali yurak-qon tomir yetishmovchiligi, yuqori nafas yo'llari infeksiyasi*) turlarga bo'linadi. Ular kasallikning etiologiyasi va klinik xususiyatlarini aniq ifodalash imkonini beradi.

Qisqartma tibbiy terminlar ko'p komponentli terminlarning ixcham shaklini yaratishga xizmat qiluvchi abbreviatsiya jarayoni mahsuli bo'lib, ilmiy va amaliy nutqda keng qo'llanadi. Struktur jihatdan ular **harfiy**, **bo'g'inli** va **aralash** turlarga ajratiladi. *Harfiy qisqartmalar* termin tarkibidagi so'zlarning bosh harflari asosida hosil bo'ladi: *OITS, YIK, UTT, BSY, DAB, JSST* kabi birliklar shular jumlasidandir. *Bo'g'inli qisqartmalar* esa so'zlarning ayrim bo'g'inlarini birlashtirish orqali yuzaga keladi: *sanepid, travmpunkt, O'zmedimpeks, Farmmed, Medtexnika, Tibmarkaz*. Bundan tashqari, amaliy tibbiyotda **aralash** turdagi *mg* (milligramm) va *mcg* (mikrogramm); *bid* (kuniga ikki marta) va *tid* (kuniga uch marta); *tab* (tabletk) va *cap* (kapsula); *s.c.* (teri ostiga), *i.m.* (mushak ichiga) hamda *i.v.* (tomir ichiga) kabi qisqartmalar dorilar dozasi, qo'llash usuli yoki qabul qilish tartibini ifodalashda ishlatiladi. Qisqartmalar ilmiy nutqni ixchamlashtiradi, axborotni tez yetkazishga xizmat qiladi, biroq ularning haddan tashqari ko'pligi matnni tushunishni qiyinlashtirishi mumkinligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**O'zbek tibbiy terminologiyasini takomillashtirish masalalari**" deb nomlanib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli "*O'zbek tibbiy terminologiyasi muammolari*" deb nomlanadi. O'zbek tibbiy terminologiyasida *terminlarning variantlilik* va *sinonimiyasi* muhim muammo hisoblanadi, chunki bu holat bir tushunchaning bir nechta shaklda ifodalanishiga olib kelib, ilmiy aniqlikni susaytiradi. Variantlilikda terminning ma'nosi o'zgarmaydi, faqat shakli farqlanadi: masalan, elektrokardiogramma – EKG, ultratovush tekshiruvi – UTT – UZI, kompyuter tomografiyasi – KT, magnit-rezonans tomografiya – MRT. Sinonimiyada esa bir tushuncha turli nomlar bilan ifodalanadi: o'pka yallig'lanishi – pnevmoniya, qand kasalligi – qandli diabet – diabet, yurak xuruji – miokard infarkti – infarkt. Shuningdek, tarjima bilan bog'liq parallel shakllar (immun tanqisligi – immun yetishmovchiligi, yurak yetishmovchiligi – yurak faoliyati yetishmovchiligi) ham ortiqcha variantlarni yuzaga keltiradi. Bu holatlar termin tanlashni murakkablashtirib, mutaxassislar o'rtasida noaniqlik tug'diradi.


Bundan tashqari, *terminlarning ortiqcha ko'p komponentlilik* – bu bitta ilmiy tushunchaning juda ko'p aniqlovchi unsurlar orqali ifodalanishi natijasida terminning haddan tashqari uzun va murakkab shaklga ega bo'lishidir. Masalan, *yuqori nafas yo'llarining o'tkir virusli infeksiyasi* yoki *surunkali yurak-qon tomir yetishmovchiligi* kabi terminlar kasallikning turi, joyi va kechishini aniq ko'rsatsada, ularni nutqda qo'llash noqulaylik tug'diradi. Shu sababli amaliy muloqotda ular ko'pincha *O'RVI* yoki *respirator infeksiya* kabi qisqartirilgan shakllarda ishlatiladi; bu esa aniqlik va ixchamlik o'rtasidagi muvozanat muammosini yuzaga keltiradi.

O'zlashma terminlarning me'yorlashmaganligi – chet tillardan kirib kelgan tibbiy terminlarning o'zbek tilida yagona, barqaror yozilish va qo'llanish shakli belgilanmagan holatidir. Ayrim hollarda terminlar o'zbek tilining fonetik va morfologik xususiyatlariga to'liq moslashtirilmagan holda ishlatiladi. Natijada bir xil termin turlicha variantlarda ishlatiladi: masalan, *gipertoniya* – *gipertenziya*, *kardiologiya* – *kardilogiya* – *kardiologia*, *neurologiya* – *nevrologiya* yoki *nervologiya* kabi shakllar uchraydi. Bu esa ilmiy matnlarda bir xillikni buzib, terminologik izchillik va standartlashuv jarayonini murakkablashtiradi. *Yangi terminlarning tizimsiz o'zlashuvi* – zamonaviy tibbiyotda paydo bo'layotgan yangi ilmiy tushunchalarning (asosan ingliz tilidan) o'zbek tiliga muqobil yaratmasdan, tayyor holatda qabul qilinishi va yagona me'yor asosida tartiblanmasligidir. Masalan, *skrining*, *monitoring*, *stent*, *skaner*, *3D-bioprinting*, *CRISPR* kabi terminlar to'g'ridan to'g'ri qo'llanmoqda, ba'zilariga esa o'zbekcha muqobil (masalan, *skrining* – profilaktik tekshiruv, *monitoring* – uzluksiz kuzatuv) mavjud bo'lsa-da, ular barqaror standartlashmagan. Bu holat terminologik tizimda tartibsizlik va parallel shakllarning ko'payishiga olib keladi. *Umumxalq tili bilan semantik yaqinlik* – tibbiy terminlarning kundalik tilda mavjud bo'lgan so'zlar bilan shaklan bir xil yoki ma'nodosh bo'lishi natijasida ularning ilmiy va maxsus mazmuni bilan oddiy nutqdagi ma'nosi aralashib ketishidir. Masalan, *shok* tibbiyotda organizmning og'ir patologik holatini bildirsa, umumxalq tilida u “kuchli hayrat”; *bosim* tibbiyotda qonning tomir devoriga fizik ta'siri bo'lsa, kundalik nutqda “tazyiq” “ta'sir o'tkazish” ma'nolarini ifodalaydi. Bu semantik yaqinlik terminlarning noto'g'ri talqin qilinishiga va ilmiy aniqlikning pasayishiga olib keladi.

Bobning ikkinchi fasli “*Tibbiy terminlarni me'yorlashtirish mezonlari*” deb nomlanadi. Mazkur faslda tibbiy terminlarni me'yorlashtirishning nazariy asoslari hamda ularning ilmiy va amaliy qo'llanishini ta'minlovchi asosiy mezonlar yoritilgan.

Aniqlik va bir ma'nolilik mezonida tibbiy termin muayyan ilmiy tushunchani aniq, ravshan va faqat bitta ma'noda ifodalashi lozim, ya'ni uning mazmuni boshqa tushunchalar bilan aralashib ketmasligi kerak. Bu mezon, ayniqsa, tibbiyotda muhim bo'lib, noto'g'ri talqin diagnostika va davolashda xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois, terminlar qat'iy semantik chegaraga ega bo'lishi, imkon qadar monosemantik bo'lishi zarur (masalan, *miokard infarkti*, *gipertoniya*). *Ixchamlik mezon*i esa terminning qisqa, lo'nda va nutqda qulay bo'lishini ta'minlaydi; bu ilmiy axborotni tez va samarali yetkazishga xizmat qiladi, biroq qisqartirish aniqlikka zarar yetkazmasligi lozim (masalan, *O'RVI*).

*Tizimlilik mezon*i terminlarning alohida emas, balki o'zaro bog'langan tushunchalar tizimi tarkibida mavjud bo'lishini anglatadi. Bu terminologiyaaning mantiqiyliги va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi, har bir terminning o'rnini va boshqa birliklar bilan munosabatini belgilaydi (masalan, *laringit*, *bronxit*, *bronxoadenit*, *pnevmoniya* bir tizimga kiradi). Tizimlilik mezon, shuningdek, terminlarning iyerarxik tuzilishini ham nazarda tutadi. Masalan, umumiy tushunchadan xususiy tushunchaga o'tish jarayonida terminlar zanjiri hosil bo'ladi (4.1-rasmga qarang):



“4.1-rasm”. Tibbiy terminlarning iyerarxik tizimi

*Til me'yorlariga moslik mezon*i esa terminlarning adabiy til qoidalari, fonetik va morfologik normalarga muvofiq shakllanishini talab etadi, bu esa terminlarning to'g'ri, barqaror va tushunarli qo'llanishini ta'minlaydi (masalan, *kardiologiya*, *nevrologiya*).

*Xalqaro uyg'unlik mezon*i terminlarning jahon miqyosida qabul qilingan standartlar va tasniflar bilan mos kelishini anglatadi, bu esa global ilmiy muloqot va axborot almashinuvini osonlashtiradi (masalan, *diabet*, *bronxit*). *Barqarorlik mezon*ida esa terminlar ilmiy adabiyotlar, o'quv darsliklari, tibbiy hujjatlar, klinik protokollar hamda amaliy tibbiyot jarayonida bir xil shakl va bir xil ma'noda qo'llanishi lozim.

Bobning uchinchi fasli “*O'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar*” deb nomlanadi. Mazkur faslda o'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar kompleks tarzda yoritiladi. Unda terminlarni tartibga solish, standartlashtirish, milliy va xalqaro terminlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali terminologik bazani boyitish kabi ustuvor yo'nalishlar asoslab berilgan.

Shularni inobatga olgan holda, o'zbek tibbiy terminologiyasining yanada mukammal bo'lishi uchun quyidagilarni taklif sifatida qayd etdik (4.2-rasmga qarang):

1. Tibbiy terminlarning milliy korpusini yaratish.
2. Zamonaviy terminologik lug'atlar yaratish.
3. Terminologik standartlar ishlab chiqish.
4. Tibbiy terminlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish.
5. Raqamli terminologik platformalar yaratish.

“4.2-rasm”. Tibbiy terminologiya takomillashuvi uchun takliflar

1. *Tibbiy terminlarning milliy korpusini yaratish* o'zbek tibbiy terminologiyasini standartlashtirish, yagona me'yor asosida tartibga solish hamda xalqaro terminlar bilan muvofiqlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Bundan tashqari, korpus lingvistik va terminologik tadqiqotlar uchun empirik baza vazifasini bajarib, yangi terminlarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish va ularning semantik chegaralarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. *Zamonaviy terminologik lug'atlar yaratish*. Zamonaviy tibbiy lug'atlar ilmiy asoslangan tamoyillar asosida tuzilishi lozim. Bunda terminlarning aniq va qisqa ta'rifi, ularning semantik chegaralari, qo'llanish sohasi hamda funksional xususiyatlari izchil yoritilishi zarur. Har bir termin uchun uning xalqaro ekvivalenti (asosan lotin va ingliz tillaridagi shakllari), sinonimlari, variantlari va qisqartmalari keltirilishi lug'atning ilmiy va amaliy qiymatini oshiradi. Shuningdek, mavjud tibbiy lug'atlar takomillashtirib, xato va kamchiliklari tuzatilishi lozim.

3. *Terminologik standartlar ishlab chiqish*. Terminlarni standartlashtirish jarayonida yagona normativ terminlar reyestrini yaratish zarur. Bunday reyestr tibbiyot sohasida qo'llanilayotgan barcha asosiy terminlarni qamrab olgan holda, ularning me'yoriy (tavsiya etilgan) shaklini belgilab beradi. Reyestrda har bir terminning aniq ta'rifi, qo'llanish sohasi, xalqaro ekvivalenti (lotin va ingliz tillarida), shuningdek, mavjud sinonimik variantlari ko'rsatilishi lozim. Bu esa terminlarning ilmiy asoslangan holda tanlanishini va amaliyotda yagona shaklda qo'llanishini ta'minlaydi.

4. *Tibbiy terminlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish*. Bu jarayon terminlarni tizimli, kontekstual va kommunikativ asosda o'rgatish zaruratini belgilaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv usullar terminologik bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. *Raqamli terminologik platformalar yaratish* terminologik ma'lumotlarni yagona elektron tizimga jamlash, yangilash va keng foydalanuvchilarga taqdim etish imkonini beradi. Bunday platformalar interaktivlik, tezkor qidiruv va sun'iy intellekt asosida yangilanib borish xususiyatlari bilan terminologiyaning zamonaviy rivojiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur besh yo'nalish o'zbek tibbiy terminologiyasini ilmiy asosda takomillashtirish, uning amaliy samaradorligini oshirish va xalqaro terminologik tizim bilan uyg'unlashgan barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

1. O'zbek tili tibbiy terminologiyasi tibbiyot sohasiga oid ilmiy tushunchalarni aniq, tizimli va normativ shaklda ifodalovchi maxsus til tizimi sifatida shakllangan terminlar majmuasini tashkil etadi. Mazkur terminologik tizim termin, terminologiya va terminosistema kabi o'zaro bog'liq tushunchalar asosida rivojlanib, monosemantiklik, aniqlik, tizimlilik va barqarorlik kabi xususiyatlari bilan umumxalq leksikasidan farqlanadi hamda tibbiy bilimlarning ilmiy asosda ifodalanishiga xizmat qiladi.

2. Tibbiyot terminologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili ushbu terminologik tizimning nazariy asoslari xalqaro va milliy tilshunoslik doirasida keng o'rganilganini ko'rsatadi. Terminologiya nazariyasi vakillari hamda o'zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tibbiy terminlarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini yoritib, ularning ilmiy kommunikatsiyadagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qilgan.

3. Zamonaviy lingvistik yondashuvlarda tibbiy terminlar kognitiv, diskursiv va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganilib, ular ilmiy tafakkur jarayonida shakllanadigan konseptual bilimlarning til orqali ifodalanish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv terminlarning ilmiy bilimlarni kategoriyalash, tizimlashtirish hamda modellashtirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi.

4. Tibbiyot terminologiyasini tadqiq etishda integrativ yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv terminologiyani faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq murakkab tizim sifatida o'rganish zaruratini asoslaydi hamda terminlarning shakllanish mexanizmlari va funksional imkoniyatlarini kompleks tahlil qilish imkonini yaratadi.

5. Tadqiqot natijalari o'zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishi tilning ichki lingvistik resurslari asosida amalga oshirishini ko'rsatdi. Leksik-semantik kengayish, derivatsion jarayonlar, sintaktik birikish hamda metaforik-kognitiv tafakkur orqali yangi terminlar hosil qilinib, terminlarning milliylik, tizimlilik va ilmiy aniqlik xususiyatlari ta'minlanadi.

6. Leksik-semantik omillar asosida shakllangan tibbiy terminlar mavjud so'zlarning ma'no kengayishi, torayishi va ixtisoslashuvi orqali yuzaga keladi. Derivatsion usullar esa affiksatsiya, kompozitsiya kabi so'z yasash vositalari orqali yangi terminlarning yaratilishiga xizmat qiladi hamda terminologik tizimning izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

7. Sintaktik usul orqali hosil bo'lgan terminologik birliklar so'z birikmalari shaklida namoyon bo'lib, murakkab tibbiy tushunchalarni batafsil va aniq ifodalash imkonini beradi. Metaforik-kognitiv mexanizmlar esa inson tafakkuridagi konseptual o'xshatishlar asosida terminlarning hosil bo'lishiga xizmat qilib, tibbiy hodisalarni tushunarli tarzda ifodalashga yordam beradi.

8. O'zbek tibbiy terminologiyasining rivojlanishida tashqi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-madaniy aloqalar, xalqaro ilmiy integratsiya, tarjima jarayonlari hamda globalizatsiya va texnologik taraqqiyot terminlarning boyishi va xalqaro ilmiy standartlarga moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

9. Terminologik birliklarning mazmuniy hamda funksional belgilari asosida tibbiy bilimlarning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli ravishda ifodalash imkonini beradigan hamda terminologik tizimning mazmuniy yaxlitligini ta'minlaydigan o'zbek tili tibbiy terminlarining anatomo-morfologik, fiziologik, patologik, diagnostik, terapevtik-klinik hamda farmakologik guruhlardan iborat semantik tasnifi ajratildi.

10. Tibbiy terminlarning nominativ-struktur tasnifi ularning sodda (tub va yasama), qo'shma, birikmali va qisqartma shakllari asosida o'rganilib, terminlarning shakliy tashkil topish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur struktur

modellarning qo'llanishi terminologik tizimning izchilligi, aniqligi va funktsionalligini ta'minlaydi.

11. Tadqiqot jarayonida o'zbek tibbiy terminologiyasida uchraydigan muammoli holatlar, jumladan, terminlarning variantlilik, sinonimik ortiqchaligi, ko'p komponentli murakkab shakllarning keng qo'llanishi ilmiy va amaliy matnlarda ayrim noaniqliklarni yuzaga keltirishi aniqlangan. Bu esa terminlarni me'yorlashtirish va standartlashtirish zaruratini ko'rsatadi.

12. O'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun terminlarni ilmiy mezonlar asosida me'yorlashtirish, milliy terminologik korpus va zamonaviy terminologik lug'atlar yaratish, raqamli terminologik platformalarni joriy etish hamda terminlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishlar asosida milliy tibbiy terminologiyaning barqaror rivojlanishi va xalqaro ilmiy makon bilan uyg'unlashishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БОЗОРОВА ГУЛМИРА ЗАЙНИДДИНОВНА

**ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ
ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ наук**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2025.2.DSc/Fil975 в Высшей Аттестационной комиссии Республики Узбекистан.

Докторская диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Абузалова Мехринисо Кадировна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные рецензенты: Гулямова Шахноза Кахрамоновна
доктор филологических наук (DSc), доцент
Собиров Абдулхай Шукурович
доктор филологических наук (DSc), профессор
Исломов Икром Хушбокович
доктор филологических наук (DSc), доцент

Ведущая научная организация: Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится "26" августа 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 при Бухарском государственном университете (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. М.Икбол дом №11. Тел.: (+99865221-29-14, факс: (+99865221-29-14; электронная почта: buxdu@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № D-998 (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. М.Икбол дом №11. Тел.: (+99865221-29-14, факс: (+99865221-29-14; электронная почта: buxdu@buxdu.uz).

Автореферат диссертации разослан "12" августа 2026 года.
(Протокол рассылка № 25 от " " август 2026 года).


Жиличев Б.Э.
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
филологических наук (DSc), профессор
Хожиева М.Ю.
Научный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
философии по филологическим наукам
(PhD), доцент
Тоирова Г.И.
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор филологических наук
(DSc), профессор

ВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (DSc) наук)

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Стремительное развитие мировой системы здравоохранения, интеграция медицинской науки и широкое внедрение инновационных технологий обуславливают глубокую трансформацию систем медицинской терминологии. Международный обмен опытом, оперативное распространение медицинских знаний и потребность в формировании единого терминологического пространства делают обеспечение точности, последовательности и стандартизации медицинских терминов одной из наиболее актуальных задач. Особенно в условиях глобализации, когда усиливается взаимовлияние медицинской терминологии различных языков, возрастает необходимость её упорядочения и стандартизации в соответствии с нормами национального языка. В этой связи системное изучение факторов формирования медицинской терминологии узбекского языка, а также разработка функциональных основ её нормализации приобретают особую актуальность для современной лингвистики и медицинской науки.

В мировой лингвистике терминология, в частности медицинская терминология, относится к числу наиболее активно исследуемых направлений в рамках когнитивного, дискурсивного и социолингвистического подходов. Термины изучаются не только как номинативные единицы, но и как феномены, тесно связанные с человеческим мышлением, профессиональной коммуникацией и социальной средой. Наряду с этим особое значение приобретает интегративный анализ взаимосвязи внутренних и внешних факторов, определяющих формирование терминов. Вместе с тем последовательное исследование медицинской терминологии тюркских языков, в частности узбекского языка, в рамках указанных подходов, выявление факторов её формирования, раскрытие закономерностей развития, а также разработка принципов её нормализации сохраняют высокую научную актуальность.

В нашей стране в процессе модернизации системы здравоохранения и развития научной деятельности совершенствование национальной медицинской терминологии признается одной из приоритетных задач. В частности, поставлена задача «...обеспечения полного и правильного использования возможностей государственного языка во всех сферах общественной жизни страны, включая государственное управление, современные и инновационные технологии, промышленность, банковско-финансовую систему, юриспруденцию, дипломатию, военное дело, медицину и другие сферы¹». Реформы, направленные на укрепление статуса узбекского языка как государственного, развитие языка науки и стандартизацию терминов, требуют научного системного подхода к медицинской терминологии. На практике сохраняются проблемы

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного языка». Народное слово // 22 октября 2019 г., № 218.

вариативности терминов, перевода и неопределенности в использовании заимствований. В этой связи выявление факторов формирования узбекской медицинской терминологии и их научная систематизация приобретают особую актуальность.

Настоящее исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: № УП–5590 от 7 декабря 2018 года «О мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан», № УП–5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и статуса узбекского языка как государственного языка», № УП–6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики», № УП–60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», № УП–158 от 12 сентября 2023 года «Стратегия “Узбекистан – 2030”», а также Постановлениях № ПП–5000 от 23 февраля 2021 года «О мерах по эффективной организации цифровизации в сфере здравоохранения» и № ПП–308 от 20 октября 2025 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка», а также других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Исследования, направленные на изучение факторов формирования медицинской терминологии узбекского языка, проводятся в ведущих научных центрах мира и высших учебных заведениях, в частности, в Лондонском университете, Эдинбургском университете (Великобритания), Копенгагенском университете (Дания), Венском университете (Австрия), Карловом университете (Чехия), Варшавском университете (Польша), Гранадском университете (Испания), Цюрихском университете (Швейцария), Стокгольмском университете (Швеция), Университете Осло (Норвегия), Белорусском государственном университете (Беларусь), Киевском национальном университете имени Тараса Шевченко (Украина), Вильнюсском университете (Литва), Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои,

² Обзор зарубежных научно-исследовательских работ по теме диссертации был осуществлён на основе следующих источников: <https://www.researchgate>, <https://scholar.google.com/>, <https://www.academia.edu/>, <https://www.dissercat.com/>, <https://www.lingvolive.com/ru-ru>, www.dictionary.com, www.merriam-webster.com, <http://elibrary.udsu.ru>, <https://cheloveknauka.com>, www.science.org, www.healthline.com, <https://www.sciencedaily.com/>, www.scientificamerican.com, www.languageguide.org, www.urbandictionary.com

Андижанском государственном университете, Бухарском государственном университете (Узбекистан).

В области изучения терминологии и медицинских терминологических единиц, в частности, достигнуты следующие научные результаты: разработаны когнитивные модели медицинских терминов, раскрыты лингвистические особенности клинического дискурса и медицинской коммуникации (Гарвардский университет, США); исследованы историко-этимологические основы терминов, разработаны их деривационные модели и принципы терминообразования (Гейдельбергский университет, Германия); охарактеризованы лексико-семантические, метафорические и функциональные особенности медицинских терминологических единиц (Университет Сорбонна, Франция); изучены вопросы создания многоязычных медицинских словарей, терминографии, стандартизации терминов, их перевода и адаптации к национальному языку (Хельсинкский университет, Финляндия; Токийский университет, Япония; Пекинский университет, Китай); проведены научные исследования в области медицинской коммуникации, клинического общения и прикладной лингвистики (Сиднейский университет, Австралия); исследованы место медицинских терминов в национальной терминологической системе, принципы их нормализации, а также особенности их научного и практического применения (Бирмингемский университет, Великобритания; Венский университет, Австрия; Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Узбекистан); раскрыты структурно-семантические, функциональные и коммуникативные особенности медицинской терминологии, а также сравнительные характеристики терминологических систем различных языков (Университет Осло, Норвегия; Варшавский университет, Польша; Бухарский государственный университет, Узбекистан).

В современной мировой лингвистике к числу приоритетных направлений научных исследований относятся: теоретическое обоснование медицинской терминологии в структурно-семантическом и функциональном аспектах; выявление системных свойств терминов и их деривационных моделей; описание медицинских терминов на основе когнитивного, дискурсивного и социолингвистического подходов; исследование лингвистических факторов формирования медицинской терминологии; разработка и совершенствование принципов стандартизации терминов и терминографического описания; определение особенностей функционирования медицинских терминов в научном и клиническом дискурсе; создание электронных терминологических баз данных и корпусов; а также разработка лингвистических моделей медицинских терминов для нужд корпусной лингвистики, компьютерной лингвистики и технологий искусственного интеллекта.

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике проведено значительное количество научных исследований, посвящённых лингвистическому изучению медицинской терминологии. В частности,

теоретические основы терминоведения, особенности специального языка как системы, а также вопросы формирования и развития научных терминов широко исследованы такими учёными, как В.В. Виноградов, А.А.Реформатский, Д.С.Лотте, В.П.Даниленко, Х.Фельбер, Э.Вюстер, Дж.К.Сейджер, М.Т.Кабре, В.М.Лейчик³.

Кроме того, в мировой лингвистике исследования медицинской лексики и медицинской терминологии в рамках семантического, структурного, функционального и когнитивного подходов проводились Е.В. Бекишевой, Л.Ю.Зубовой, Т.С.Кирилловой, С.Л.Мишлановой, В.Ф.Новодрановой⁴. Лингвистические особенности медицинского дискурса изучались Л.С.Бейлинсон, В.В.Юрой, Е.А.Костяшиной, Т.Г.Каримшаковой, А.А.Голубых⁵, а вопросы медицинской терминологии освещены в работах С.И.Маджаевой, Т.А.Трафименковой, Г.А.Абрамовой⁶.

В последние годы в узбекском языкознании также проводятся исследования, посвящённые медицинским единицам. В трудах М.К. Абузаловой, Б.Т.Суюнова, Б.З.Гафурова, Д.Р.Собировой, М.Г.Наврузовой, М.У.Абдурахмоновой, Д.К.Худойкуловой, Ф.Х.Косимовой, С.К.Ёровой, Ф.И.Абдулхаировой, А.Б.Кобиловой, Н.И.Гайбуллаевой, М.Ш.Юнусовой,

